



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 316 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
Shermanova Feruza Djumaboyevna	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
Xurramov Anvar Vafqulovich	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
Olim Ziyoyev Toshpulatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
Kushakova Nargiza Islambaevna	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
Majitova Munisa Oybek qizi	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
Normurodova Qunduz Tursun qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
Po'latova Sitora Olimjonovna	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
Shomurotova Sh. X.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
Shermanova Feruza Djumaboyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
Suvanova Kamola Raimqul qizi	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
Набиев Абдулло Абдувохидович	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish	91
Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi	96
Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi	101
Saydullayev Zafar Erkinovich	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili	104
Allanov Shuxrat Qilichovich	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari	108
Fayziyev Baxodir Baxshilloevich	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish	112
Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari	116
Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash	119
Eshonqulova Ma'suda Habibovna	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	123
Islomova Ozoda Isomiddin qizi	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi	127
Abdullayeva Maftuna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati	131
Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish	135
Axmadova Malika	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida)	139
Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari	143
Mirzayeva Nodira Abduxamidovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati	146
D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida)	150
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	154
G'. Yu. Eshmirzayev	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari	157
Kamolova Nargiza Ibragimovna	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	161
Mapruza Embergenova	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili	167
Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida	171
Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari	177
Raximova Nigora Atakulovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili	184
Xolmurotova Mahbuba Maxmudovna	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari	189
<i>Yarmatova Sanobar Jo'rayevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar	193
<i>Norquvatova Diyora Davron qizi</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	197
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих	201
<i>Зохилов Нодирбек Улугбекович</i>	
Kimyo fanini o'qitishda muommali ta'lim metodining o'рни va amaliy ahamiyati	205
<i>Kultayev Kuzibay Kazakbayevich</i>	
Rolli o'yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni erta kasbga yo'naltirishning pedagogik shart-sharoitlari	209
<i>Niginabonu Fayzullayeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda PIRLS va TIMSS talablariga mos ta'lim texnologiyalarini qo'llashning didaktik asoslari	214
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Mamedova Maxfuza Erkinovna, Omonova Gulandom Davlatovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida virtual laboratoriyalarni o'qitish	219
<i>Tilovova Turdixol Baratovna</i>	
Hosila va uning tadbirlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	222
<i>Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini shakllantirish texnologiyalarini amaliyotda qo'llash usullari	228
<i>Dauletnazarova Ainura Kayirbaevna</i>	
O'quvchilar o'rtasida bullingni oldini olish va pedagogik-psixologik omillarni bartaraf etish yo'llari	233
<i>U. A. Alibayeva</i>	
Yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlari	236
<i>O. K. Kadambayeva</i>	
Bo'lajak logopedlar rinolaliyani og'ir nutq nuqsoni sifatida o'rganishda qo'llaniladigan topshiriqlarning ahamiyati	240
<i>Achilova Sevara Djasirkulovna</i>	
Tarjima mashqlari orqali nemis tili (DaF) darsida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish	243
<i>Musayeva Guzal Ne'matillayevna</i>	
O'tkir Rahmat she'rlari lingvopoetikasi	247
<i>Xoldarova Gulchehra Tajibayevna</i>	
Проблемы и тенденции развития грамматики русского языка	250
<i>Юлдашев Баходир Бекмуратович</i>	
O'smir taekvondochilarning qo'l-oyoq kuchining an'anaviy mashg'ulotlar davomida o'sish sur'ati	253
<i>A. X. Norov</i>	
Инновационные педагогические технологии в преподавании русского языка и проблемы повышения качества подготовки кадров	259
<i>Адилова Солияхон</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish	263
<i>Muminjonova Muhayyo G'ulomovna</i>	
Nutqning ijtimoiy-psixologik va lingvistik xususiyatlari	268
<i>Sh. I. Nurmatova, G. B. Xujamova</i>	
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini shakllantirish va o'quv materiallarining ahamiyati	271
<i>Abdullayeva Uljalg'as Tulegen qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy pedagogik kompetensiyani aniqlash metodologiyasi	274
<i>D. O'. Yo'ldosheva, J. A. Jovlijev</i>	



Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga badiiy adabiyot vositasida ijtimoiy xulq madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati.....	278
Daminova Shoxista Farxodovna	
Using the Method of Mnemonics in Teaching English Idioms: Enhancing Retention and Comprehension in EFL Learners	281
Dusmamadova Gulsum Shukhratovna	
Sun'iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan matematika ta'limining o'quvchilar natijalariga ta'siri	284
Jurayeva Gulshanoy Turdiyevna	
Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda axborot oqimlarining ijobiy ta'sirlari.....	288
Karimova Umida Alijon qizi	
Viruslar replikasiyasining molekulyar asoslari va uni o'qitishda "Case-study" metodining samaradorligi.....	293
O'. E. Xo'janazarov, B. B. Ishmo'minov, M. Fayzieva, M. Xayitmuratova	
Psixodiagnostik metodikalar asosida talabalarning xarakter aksentuatsiyasining gender farqlarini o'rganish	298
Sh. Allanazarova, R. Janabaeva	
"Muhofazaga olingan hududlar" modulidan talabalarning bilimni nazorat qilishga mo'ljallangan nostandart testlardan foydalanish metodikasi	301
Saidmuratov Shoxid Xusanovich, Ishmo'minov Bobur Botir o'g'li, Abduvohidova Madina Ilhomjon qizi, Matkomilova Feruza Xasan qizi	
Ergonomik yondashuv asosida registrator ofisi ish jarayonlarini modellashtirish va takomillashtirish	307
To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li	
Sport turlarini tasniflash va sport mashg'ulotlarini kompleks monitoring qilishning ilmiy-metodologik asoslari	311
Ilhomjon Axmedovich Tursunaliyev	



O'TKIR RAHMAT SHE'RLARI LINGVOPOETIKASI

Xoldarova Gulchehra Tajibayevna
 Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistri

Annotatsiya: O'zbekiston xalq shoiri O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan lingvopoetik vositalarning semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil etiladi. Shoir she'rlaridagi kognitiv metaforalar, tasviriy vositalar, leksik-semantik yondashuvlar, sintaktik tuzilmalar hamda janr-uslubiy xususiyatlar yoritiladi. O'tkir Rahmat she'rlarining "inson ruhiyati musavviri" sifatidagi mohiyati lingvopoetik nuqtai nazardan ochib beriladi. Shuningdek, "Bir qush bor..." she'ri alohida lingvopoetik tahlil asosida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, kognitiv metafora, tasviriy vositalar, she'riy til, semantika, uslub, O'tkir Rahmat, konseptual tahlil.

Abstract: The semantic and stylistic features of linguopoetic devices used in the works of the People's Poet of Uzbekistan, O'tkir Rahmat, are analyzed. The study examines cognitive metaphors, imagery devices, lexical-semantic approaches, syntactic structures, as well as genre and stylistic characteristics of the poet's language. The essence of O'tkir Rahmat's poetry as a "portraitist of the human soul" is interpreted from a linguopoetic perspective. A separate linguopoetic analysis of the poem "Bir qush bor..." ("There is a bird...") is also presented.

Key words: linguopoetics, cognitive metaphor, imagery devices, poetic language, semantics, style, O'tkir Rahmat, conceptual analysis.

Аннотация: Анализируются семантико-стилистические особенности лингвопоэтических средств, использованных в творчестве народного поэта Узбекистана Уткира Рахмата. Рассматриваются когнитивные метафоры, изобразительные средства, лексико-семантические подходы, синтаксические структуры, а также жанрово-стилистические особенности поэтического языка автора. Сущность поэзии Уткира Рахмата как "художника человеческой души" раскрывается с лингвопоэтической точки зрения. Отдельное внимание уделяется анализу стихотворения "Бир қуш бор..." ("Есть одна птица...").

Ключевые слова: лингвопоэтика, когнитивная метафора, изобразительные средства, поэтический язык, семантика, стиль, Уткир Рахмат, концептуальный анализ.

KIRISH

Adabiyotshunoslikda badiiy matnni turli metodlar yordamida tahlil etish an'anaviy hisoblanadi. Xususan, so'nggi yillarda tilshunoslik va adabiyotshunoslik chegarasida yangi bir yo'nalish – lingvopoetika shakllanib ulg'aydi. Lingvopoetika badiiy matn tilining poetik funksiyalarini, til vositalarining estetik ta'sir kuchini hamda muallifning individual uslubini o'rganadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tilshunosligida badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning ilmiy asoslari M.Yo'ldoshev^[4], I.Mirzayev^[3], G.Muhammadjonova^[3], D.Shodiyeva^[5], N.Rahmonova^[6] kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur olimlarning dissertatsiyalari va monografiyalari zamonaviy o'zbek she'riyatining lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

O'tkir Rahmat (1948-yil 15-mart, Samarqand viloyati) – O'zbekiston xalq shoiri, Xalqaro Cho'lpon mukofoti sohibi. U 1961-yildan boshlab she'rlar yoza boshlagan^[7]. Samarqand davlat universiteti va Toshkent davlat yuridik universitetini tamomlagan. Uzoq yillar matbuotda faoliyat ko'rsatib, nufuzli idoralarda mas'ul lavozimlarda ishlagan.

Shoirning “Irmoq”, “Sog’inch”, “Rayhon hidi”, “Shukrona”, “Oy yog’dusi”, “Ko’zim qorachug’i”, “Xayol ifori”, “Yurakdagi qush”, “Xoksor mayssa”, “Dilchiroq” kabi[8] o’ndan ziyod she’riy to’plamlari nashr etilgan. She’rlari qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Shoir ijodida sof va samimiy tuyg’ular, quvonch va qayg’u, shukronalik va iztirob, orzu va armon kabi insoniy kechinmalar tabiat prizmasi orqali tasvirlanadi. O’tkir Rahmatni muxtasar tarzda “inson ruhiyati musavviri” deb atash mumkin.

Lingvopoetika badiiy matnni tahlil qilishning ilmiy usullaridan biri bo’lib, matn tilining quyidagi xususiyatlarini o’rganadi:

1. Shakl va mazmun birligi – she’riy til vositalari va ular ifoda qilayotgan g’oyalarning o’zaro bog’liqligi. Badiiy matnda har bir til vositasi mazmunni ifoda etish vositasi bo’lib xizmat qiladi va shakliy jihatlar mazmun bilan bevosita bog’liq.
2. Makon va zamon birligi – badiiy matnda vaqt-fazo munosabatlari. She’riy tilda vaqt va makon tushunchalari o’zaro bog’liq holda tasvirlanadi va insoniy tuyg’ularning kechishi uchun fon yaratadi.
3. Matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabati – folklor an’analari va adabiy til normalari. Badiiy matnda xalq tilining boylklari va adabiy til normalari o’zaro uyg’unlikda qo’llaniladi.
4. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash – stilistik figuralar, troplar. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, tashbeh kabi troplar hamda anafora, epifora, inversiya kabi figuralar badiiy ta’sirni kuchaytiradi.
5. Badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbati – oshkora va yashirin ma’nolar. Badiiy matnda aytilgan so’zlarning oshkora ma’nosi bilan birga ilgari surilgan implitsit ma’nolari ham mavjud bo’ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O’tkir Rahmat she’rlari lingvopoetik jihatdan o’rganish uchun sifatli va matn tahliliga asoslangan metodlardan foydalanildi. Ma’lumotlar shoirning nashr etilgan she’riy to’plamlari, ilmiy maqolalar hamda lingvopoetika yo’nalishidagi tadqiqotlar asosida yig’ildi. Tanlangan she’rlar ichidan namunalar ajratib olinib, ularda qo’llangan leksik, semantik va sintaktik birliklar tizimli ravishda tahlil qilindi. Kognitiv metaforalarni aniqlashda konseptual tahlil usuli qo’llanilib, manba va maqsad sohalari o’rtasidagi bog’liqliklar o’rganildi. Tasviriy vositalarni aniqlashda stilistik tahlil, sintaktik tuzilmalarni o’rganishda esa strukturaviy tahlil metodlari qo’llanildi. Olingan natijalar qiyosiy va tavsifiy usullar yordamida umumlashtirilib, shoir she’riy tilining lingvopoetik xususiyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metafora she’riy tilning asosiy tasviriy vositasi bo’lib, O’tkir Rahmat ijodida alohida o’rin tutadi^[1]. Kognitiv lingvistikada metafora – bu faqat til vositasi emas, balki tafakkur usuli hisoblanadi. Inson bir sohani tushunish uchun boshqa sohadan foydalanadi. “Tabiat – inson ko’zguisi” metaforasi O’tkir Rahmat ijodida muhim o’rin egallaydi, unda tabiat hodisalari insonning ichki holatiga ko’chiriladi. Bu yerda tabiat obyekti (manba sohasi) insoniy kechinmani (maqsad sohasi) tushuntirishga xizmat qiladi. Daryo va irmoq umr yo’li sifatida talqin qilinib, hayot tinch oqar daryo emas, balki toshlarga urilib charchaydigan, ammo to’xtamaydigan irmoq sifatida tasvirlanadi. Xazon kuz fasli orqali armon yoki yakun ma’nosini ifodalaydi, ya’ni keksayish yoki ushalmagan orzularning kognitiv belgisi sifatida namoyon bo’ladi. Bahor esa yangilanish va umid ramzi sifatida talqin qilinadi. “Vatan – muqaddas qo’rg’on” metaforasida Vatan tushunchasi “Ona” va “Uy” konseptlari bilan birlashib, tuproqning “so’zlashi” yoki “nafas olishi” kabi obrazlar orqali o’quvchida Vatanga nisbatan jonli bog’liqlik hissini uyg’otadi. Tuproq bu yerda faqat mantiqiy obyekti emas, balki mehr va qadriyatlar manbai sifatida muqaddas tushunchaga aylanadi.

O’tkir Rahmat she’riyatida “Sog’inch – masofa va vaqt” metaforasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sog’inch hissi ko’pincha “yo’l” yoki “yuk” sifatida tasvirlanib, “sog’inchning og’irligi” orqali mavhum tuyg’u jismoniy vaznga ega buyum sifatida ifodalanadi. Sog’inch masofani qoplaydi, vaqtni uzaytiradi degan tasavvurlar keng qo’llaniladi. “Mehr – nur va issiqlik” metaforasida esa mehr-muhabbat tushunchasi nur va issiqlik orqali ifodalanib, ona mehri va Vatan mehri quyosh nuri bilan qiyoslanadi. Bu orqali insoniy mehrning kosmik nurlar bilan uyg’unligi ko’rsatiladi. Shoir she’rlarida epitetlar va sifatlar ham muhim o’rin tutadi. Nursiz tunlar, shaffof ko’zlar, teran tuyg’ular, sokin mavjlar kabi epitetlar hissiy-estetik rangni kuchaytiradi. Ranglar leksikasi ham faol qo’llanilib, yashil – umid va yasharish, oq – poklik va safolik, sarg’aygan – kuz va armon, ko’k – kenglik va erkinlik, zarrin – boylk va qadriyatni ifodalaydi. Sifatlarning metonimik qo’llanishida yurak mehr va ichki tuyg’ularni, ko’z nazar va ko’z yoshini, quloq eshitish va xabar olishni, qo’l esa mehnat va yordamni anglatadi.



Shoir she'rlarida frazeologizmlar va qo'shma so'zlar ham uslubiy jihatdan muhim vazifa bajaradi. "Dil kuyi", "yurak partab", "ko'z yoshi" kabi ifodalar xalqona uslubni kuchaytiradi, shu bilan birga shoir tomonidan yaratilgan yangi metaforalar va epitetlar ham uchraydi. Sintaktik figuralar esa she'ning ritmik tuzilishi va emotsional ta'sirini belgilaydi. Parallelizm bir xil sintaktik tuzilmalar takrorlanishi orqali she'rga musiqiylik baxsh etadi, anafora misra boshida takror orqali g'oyaviy birlikni kuchaytiradi, epifora esa misra oxiridagi takror orqali ritmik yakun hosil qiladi. Antiteza qarama-qarshiliklar orqali ma'no chuqurligini oshiradi va hayotning turli jihatlarini ko'rsatadi. Inversiya esa so'z tartibining o'zgarishi orqali emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Qisqa, tezkor misralar she'r dinamikasini oshirib, vaqt o'tishini tezlashtiruvchi effekt yaratadi.

"Bir qush bor..." she'ri lingvopoetik jihatdan alohida tahlilga ega bo'lib, unda erksizlik va ozodlik muammosi yoritiladi. Asar syujeti qushning tutib olinishi, qafasda parvarish qilinishi, ozodlikka chiqarilishi va yana qafasga qaytishi hamda shoirning falsafiy xulosasi bilan yakunlanadi. Leksik jihatdan "mitti jon" so'zi qushning nozikligi va jon ekanligini ta'kidlaydi, "alanglab, yutoqib" so'zlari harakatning tezligi va intiluvchanligini bildiradi, "titkilab" fe'li hayotga bo'lgan ishtiyoqni ifodalaydi, "qafas" esa tutqinlik ramzi sifatida asosiy konseptni belgilaydi. Sintaktik jihatdan qisqa misralar vaqt o'tishini tezlatadi, takrorlar cheksiz istakni ifodalaydi, savol-javob tuzilmasi esa o'quvchini fikrlashga undaydi. She'ning asosiy g'oyasi ozodlikning qadri bo'lib, bunda ruhan ozodlik muammosi alohida urg'ulanadi. Qushcha jisman ozod bo'lsa-da, ruhan ozod emasligi, mustaqil yashay olmasligi va erksizlikka ko'nikib qolganligi fojia sifatida talqin qilinadi.

She'rda ozodlik – tutqinlik, tabiiylik – sun'iylik, ruhan ozodlik – jisman ozodlik, ko'nikma – qarshilik kabi antitezalar qo'llanilgan. Konseptual jihatdan ozodlik "kengliklar", "uchish", "bog'" kabi obrazlar orqali, tutqinlik esa "qafas", "don cho'qish", "qo'l" kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Pragmatik jihatdan she'r o'quvchini erkinlikning qadri anglashga undaydi. Qushning tabiiy holati tasvirlangan misralar orqali uning erkin yashash imkoniyati ko'rsatiladi, keyingi misralarda esa qafasga qaytib, erkinlikni unutganligi ochib beriladi. Shu tariqa erksizlikka ko'nikish insoniy fojiga aylanishi g'oyasi ilgari suriladi. Начало формы

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkir Rahmat she'rlarining lingvopoetik tahlili shoirning "inson ruhiyati musavviri" sifatidagi mohiyatini oshkor etadi. Uning she'riy tilida bir qator muhim xususiyatlar kuzatiladi. Jumladan, kognitiv metaforalar orqali tabiat va inson olami o'rtasida konseptual ko'priklar o'rnatilib, tabiat hodisalari insoniy kechinmalarga aylantiriladi. Tasviriy vositalar, ya'ni epitet, tashbeh, istioralar orqali nafis manzaralar yaratiladi va shoir so'z vositasida go'yo rassom kabi tasvir hosil qiladi. Sintaktik uslubda parallelizm, anafora, inversiya kabi vositalar qo'llanilib, she'rlarning ritmik tuzilishi mustahkamlanadi hamda musiqiylik ta'minlanadi. Semantik jihatdan oddiy so'zlar orqali chuqur falsafiy ma'nolar ifodalanadi, shoir faqat tasvir bilan cheklanmay, balki fikr yuritadi. Shuningdek, janr-uslubiy birlikda lirika, folklor va falsafiy mulohazalar uyg'unlashib, she'rlarning mazmun va shakl jihatdan yaxlitligi ta'minlanadi.

O'tkir Rahmat ijodi O'zbekiston she'riyatida lingvopoetik jihatdan chuqur o'rganishni talab etadigan muhim fenomen hisoblanadi. Shoirning tabiat tasviri, inson ruhiyatini ochishdagi mahorati, vatanparvarlik mavzusidagi she'rlari zamonaviy o'zbek lingvopoetikasining boyligini yaqqol namoyon etadi. "Bir qush bor..." she'ri esa shoir ijodida lingvopoetik jihatdan eng mukammal namunalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shoir ijodida milliy til boyluklari, folklor an'analari va zamonaviy she'riy texnika uyg'unlikda qo'llanilgan bo'lib, bu holat uni zamonaviy o'zbek she'riyatining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahammatova F.O. O'tkir Rahmat ijodida qo'llanilgan kognitiv metaforalar // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2026-yil. – №3. – B. 1088–1091.
2. Mirzayev I. She'riy matnning lingvopoetik tadqiqiga doir. – Toshkent, 1998-yil.
3. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: filol. fan. nomz. ... diss. avt. – Toshkent, 2004-yil.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: filol. fan. nomz. ... diss. avt. – Toshkent, 2003-yil.
5. Shodiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi: filol. fan. nomz. ... diss. avt. – Toshkent, 2007-yil.
6. Rahmonova N. Zamonaviy o'zbek she'riyati: lingvopoetik tadqiq: filol. fan. nomz. ... diss. avt. – Toshkent, 2005-yil.
7. O'tkir Rahmat // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBtkir_Rahmat
8. O'tkir Rahmat (1948-yil) // Ziyoz.uz. – <https://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/otkir-rahmat-1948>
9. O'tkir Rahmat. She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2020-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.